
3 NAFAR BEMORGA XOMIYLIK YORDAMI KO'RSATILDI



#Inson_qadri_uchun

Qo'shtepa tumanida kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda og'ir ahvoldagi bemorlarni sog'ligini tiklashlari uchun ularga saxovat va ko'mak ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Shu kunlarda uch nafar bemorning davolanishi uchun mablag' zarurligi inobatga olinib tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlarining tashabbusi bilan ularning yaqinlari Quvurboshi mahallasida yashovchi S.Saloxiddinov hamda Namuna mahallasida yashovchi Z.Xatamovalarga besh million so'mdan, shuningdek, Shahartepa mahallasida yashovchi M.Ortiqovaning farzandlarini davolatish, uyini ta'mirlash uchun o'n million so'm xomiylik yordami ko'rsatildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-11-02 08:34:37